

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883969>

BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA SO'Z TARKIBI VA YASALISHINING O'RGANILISHI

Ro'zimurodova Nasibaxon Shermuhammad qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim
fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich sinfi o'quvchilariga so'zni tashkil etuvchi asosiy qism, yangi so'zga aylantiruvchi va grammatik o'zgartiruvchi qo'shimchalarni o'rgatish haqidadir. Yasovchi qo'shimcha so'zning so'z turkumini o'zgartirishi va o'zgartirmasligi haqida ham ma'lumot berilgan. Bundan tashqari bularga oid topshiriqlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: asos, qo'shimcha, so'z yasovchi, shakl yasovchi.

Аннотация. Эта статья предназначена для обучения учащихся начальных классов самостоятельным частям слова, а также аффиксам, которые превращают слово в новое или изменяют его грамматическую форму. Рассматривается, как словообразующие аффиксы могут изменять или не изменять часть речи. В статье также представлены задания, связанные с этим.

Ключевые слова: основа, аффикс, образующий аффикс, формообразующий аффикс.

Abstrakt. This article is intended to teach elementary school students the basic parts of a word, as well as the affixes that transform a word into a new one or change its grammatical form. It also discusses how derivational affixes can either change or not change the part of speech. Additionally, assignments related to this topic are provided.

Keywords: base, affix, derivational affix, inflectional affix.

Soʻzning leksik maʼnosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda oʻzining nazariy asosiga ega. Morfema – soʻzning eng kichik, boʻlinmaydigan maʼnoli qismi. Morfema ikki turga boʻlinadi:

1) **asos morfema** – soʻzda albatta qatnashadigan va leksik maʼno anglatadigan morfema. Soʻzning tub (atash) maʼnosini bildirib, mustaqil qoʻllana oladigan qism asos deb ataladi: **gulzor**, **bogʻbon**, **chizgʻich**, **paxtakor**. Oʻzak soʻzdagi maʼnoli qismlarning yetakchisi boʻlib, u boshqa maʼnoli qismlarga boʻlinmaydi. Oʻzak soʻz tarkibida doim qatnashadi.

2) **affiksial morfema** – mustaqil holda leksik maʼno anglatmay, soʻzning leksik va grammatik maʼnolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema. Masalan, **gullarni** soʻzidagi *gul* – asos morfema, *-lar*, *-ni*, *-la* affiksial morfemadir.

Affikslar (qoʻshimchalar) ikki turga boʻlinadi:

1. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar asosga qoʻshilib, yangi maʼnoli soʻz hosil qiladigan qoʻshimchalardir. Ular soʻzning leksik maʼnosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, *bogʻbon*, *paxtakor*, *gulzor*, *ishchi* soʻzlaridagi *-bon*, *-kor*, *-zor*, *-chi* soʻz yasovchi qoʻshimchalardir.

2. Shakl yasovchi qoʻshimchalar. Shakl yasovchi qoʻshimchalar asosga qoʻshilib, maʼnoni bir oz oʻzgartiradigan yoki soʻzlarni oʻzaro bogʻlashga xizmat qiladigan qoʻshimchalardir. Bu qoʻshimchalar soʻzlarni grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik maʼnolarni ifodalaydi. Masalan, *maktablarimizni* soʻzida *-lar*, *-imiz*, *-ni* shakl yasovchi qoʻshimchalar boʻlib, *-lar* koʻplik maʼnosini, *-imiz* egalikning I shaxs koʻplik maʼnosini, *-ni* tushum kelishigi maʼnosini ifodalaydi.

Boshlangʻich sinflar ona tili dasturiga muvofiq soʻzning morfemik tarkibi 3- sinfda oʻrganiladi. 4-sinfda soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish koʻzda tutiladi. Soʻzning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, soʻz yasalishiga oid va grammatik bilimlarni oʻzlashtirish: 1) dastur materialini oʻrganish tizimida soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning oʻmi bilan; 2) “asos”, “asosdosh soʻz”, “soʻz yasovchi qoʻshimcha”, “shakl yasovchi qoʻshimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 3) soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasalishining oʻzaro bir-biriga taʼsir qilishi bilan; 4) morfemalarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bogʻliqligini belgilab beradi.

Mavzuni oʻrganish jarayoni toʻrt bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich – soʻz yasallishini oʻrganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – oʻquvchilarni bir xil asosli soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlanishini tushunishga tayyorlashdir. Oʻquvchilar predmet yoki predmet belgisining nomlanish sababini aniqlashdan soʻzlarning maʼnosi va tarkibidagi umumiylikni topishga oʻrganadilar. Bularning hammasi oʻquvchilarni bir xil asosli soʻzlarning yasallishi mohiyatini tushunishga tayyorlaydi; ular bir soʻz boshqa soʻzdan oʻzaro maʼno jihatdan bogʻlanishi asosida yasallishini, oʻz navbatida, shu soʻz bilan nomlangan tushunchalar oʻrtasidagi bogʻlanishga asoslanishini tushuna boshlaydilar.

Ikkinchi bosqich – bir xil asosli soʻzlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy oʻquv vazifasi – soʻzlarning maʼnoli qismlari sifatida asos, soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalar bilan tanishtirish, “asosdosh soʻzlar” tushunchasini shakllantirish, bir xil asosli soʻzlarda asosning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi. Bu oʻquvchilarda bir xil asosli soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlash koʻnikmasini rivojlantiradi. Masalan, oʻquvchilar *gul*, *gulzor*, *gulli* (*koʻylak*), *gulladi* soʻzlarini taqqoslaydilar, bu toʻrt soʻz maʼnosiga koʻra oʻxshashligini va bir xil umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun bularni bitta asosdosh soʻzlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlaydilar.

Uchinchi bosqich – asos, soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini oʻrganish metodikasi. Bu bosqichning oʻquv vazifasiga “asos”, “soʻz yasovchi qoʻshimcha”, “shakl yasovchi qoʻshimcha” tushunchalarini shakllantirish, soʻzning leksik maʼnosi bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanish haqidagi tasavvurlarni oʻstirish, asosda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli soʻzlarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish, nutqda soʻz yasovchi qoʻshimchasi bor soʻzlarni ongli ishlatish koʻnikmasini oʻstirish kiradi.

Toʻrtinchi bosqich – soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi ustida ishlash (3-4- sinf). Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish tizimida bu bosqichning maqsadi soʻz yasovchi qoʻshimchaning soʻz yasashdagi ahamiyati va shakl yasovchi qoʻshimchaning soʻz shaklini oʻzgartirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; oʻquvchilarni ot, sifat, feʼllarning yasallish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

Soʻz turkumlarini oʻrganish jarayonida oʻqituvchi oʻquvchilarga soʻz yasallishi asoslarini, soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida bir soʻz turkumidan boshqasini yoki shu soʻz turkumining oʻzini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot koʻproq boshqa bir otdan (*ishchi*, *baliqchi*; *sinf*dosh, *sirdosh*;

bog'bon, oshpaz, kitobxon, zargar), shuningdek, fe'ldan (*elak, kurak, yutuq, o'roq, yotoq, terim, bilim*); sifat ko'proq otdan (*suvli, suvsiz; yozgi, qishki, ishchan, ishli, ishsiz*), shuningdek, fe'ldan (*maqtanchoq, o'tkir, sezgir*); fe'llar otdan (*ishla, gulla, gapir*), sifatdan (*oqla, yaxshila, oqar, qoray*) yasaladi.

Topshiriq.

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zga asosdosh bo'lgan bir so'z toping. Uning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.

— **Traktor** ishi bilan shug'ullanuvchi kishi (*traktorch*i ot so'z turkumi)

— **Gul** solinadigan idish (*guld*on ot so'z turkumi)

— **G'alla** yetishtiradigan kishi (*g'all*akor ot so'z turkumi)

2. So'z yasashga doir vazifalar:

ish, suv otlaridan asosdosh otlar va fe'llar yasang.

Ish+chi, ish+la va suv+chi, suv+la

3. **Paxta, paxtakor** asosdosh so'zlari yordamida gaplar tuzing.

Kuz kelishi bilan **paxtakor**lar dalalardan **paxta**larni terib olishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Nosir, 2009.
2. S.Matchonov va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Ishonchli hamkor, 2021.
3. M.Hamrayev va boshqalar. Ona tili va bolalar adabiyoti(1-qism. Ona tili). Toshkent -2022.
4. Internet resurslari(Ziyonet.uz, kitob.uz).